# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2026-yil 2-son

VOLUME 10 / ISSUE 2 / 2026
DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2.

ISSN 2181-919X
E-ISSN 2181-1148
DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS

Crossref Content Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan.

Jurnal Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari roʻyxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va koʻpaytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**Nashr boʻyicha masʼul:**
O. Choriyev

**Muharrirlar:**
E. Mustafayev, Y. Yarmolik, M. Sharifova, Sh. Beknazarova, X. Yuldasheva, E. Sharipov

**Musahhih:**
M. Tursunov

**Texnik muharrir:**
U. Sapayev

**Dizayner:**
D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**
100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh koʻchasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz
**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

**Nashriyot litsenziyasi**
№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2026-yil 25-iyunda bosmaxonaga topshirildi.
Qogʻoz bichimi: A4.
Shartli bosma tabogʻi: 22
Adadi: 100. Buyurtma: № 71.

**Bosmaxona litsenziyasi**
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh koʻchasi, 37.

**© Toshkent davlat yuridik universiteti**

## TAHRIR HAYʼATI

**BOSH MUHARRIR**

*B. Xodjayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori, yuridik fanlar doktori, professor

**BOSH MUHARRIR OʻRINBOSARI**

*Z. Esanova* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

**MASʼUL MUHARRIR**

*O. Choriyev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot markazi direktori

**TAHRIR HAYʼATI AʼZOLARI**

*Y. Kanyazov* – Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori, yuridik fanlar nomzodi

*J. Tashkulov* – Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti boʻlim boshligʻi, yuridik fanlar doktori, professor

*U. Toʻxtasheva* – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori oʻrinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

*M. Yasan* – Balikesir universiteti Huquq fakulteti professori (Turkiya)

*S. Maʼmun* – Islam Negeri universiteti oʻqituvchisi (Indoneziya)

*Sh. Asadov* – Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuridik taʼlim va sud-ekspertiza boshqarmasi boshligʻi, yuridik fanlar doktori, professor

*I. Ergashev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Maʼmuriy va moliya huquqi shoʻbasi professori, yuridik fanlar doktori

*J. Nematov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Maʼmuriy va moliya huquqi shoʻbasi professori, yuridik fanlar doktori

*M. Aminjonova* – Oʻzbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar doktori

*M. Raximov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Tadqiqot markazi boshligʻi, yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori

*I. Djurayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar shoʻbasi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

*O. Narzullayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi shoʻbasi professori, yuridik fanlar doktori

*F. Maxmudov* – Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori oʻrinbosari, yuridik fanlar doktori, dotsent

*M. Kadirova* – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi shoʻbasi professor v.b., yuridik fanlar doktori

*I. Yakubova* – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi shoʻbasi professor v.b., yuridik fanlar doktori

*A. Muxamedjanov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari shoʻbasi professori, yuridik fanlar doktori

*N. Niyazova* – Toshkent davlat yuridik universiteti Oʻzbek tili va adabiyoti shoʻbasi professori, pedagogika fanlari nomzodi

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Ответственный за выпуск:**
О. Чориев

**Редакторы:**
Э. Мустафаев, Е. Ярмолик, М. Шарифова, Ш. Бекназарова, Х. Юлдашева, Э. Шарипов

**Корректор:**
М. Турсунов

**Технический редактор:**
У. Сапаев

**Дизайнер:**
Д. Ражапов

**Адрес редакции:**
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Веб-сайт:** review.tsul.uz
**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Подписной индекс:** 1385.

**Издательская лицензия**
от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию 25.06.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 22 Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 71.

**Лицензия типографии**
от 29.11.2023 № 174626.

Отпечатано в типографии Ташкентского государственного юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, 37.

**© Ташкентский государственный юридический университет**

## РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

### ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

*Б. Ходжаев* – ректор Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

### ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

*З. Эсанова* – проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

### ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

*О. Чориев* – директор Редакционно-издательского центра Ташкентского государственного юридического университета

### ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

*Е. Каньязов* – директор Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции, кандидат юридических наук

*Ж. Ташкулов* – заведующий отделом Института государства и права Академии наук, доктор юридических наук, профессор

*У. Тухташева* – заместитель директора Агентства по противодействию коррупции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

*М. Ясан* – профессор юридического факультета Университета Балыкесир (Турция)

*С. Маъмун* – преподаватель Исламского государственного университета (Индонезия)

*Ш. Асадов* – начальник управления юридического образования и судебной экспертизы Министерства юстиции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

*И. Эргашев* – профессор сектора административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

*Ж. Нематов* – профессор сектора административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

*М. Аминжонова* – доцент кафедры организации контроля за исполнением законодательства Правоохранительной академии Республики Узбекистан, доктор юридических наук

*М. Рахимов* – начальник Центра исследований Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

*И. Джураев* – заведующий сектором судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

*О. Нарзуллаев* – профессор сектора экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

*Ф. Махмудов* – заместитель директора Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции, доктор юридических наук, доцент

*М. Кадирова* – и.о. профессора сектора уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

*И. Якубова* – и.о. профессора сектора права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

*А. Мухамеджанов* – профессор сектора международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

*Н. Ниязова* – профессор сектора узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, кандидат педагогических наук

**FOUNDER: TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Publication Officer:**
O. Choriev

**Editors:**
E. Mustafaev, E. Yarmolik, M. Sharifova, Sh. Beknazarova, Kh. Yuldasheva, E. Sharipov

**Proofreader:**
M. Tursunov

**Technical editor:**
U. Sapaev

**Designer:**
D. Rajapov

**Publishing department addess:**
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

**Website:** review.tsul.uz
**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Subscription index:** 1385.

**Publishing license**
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 25.06.2026.
Paper size: A4.
Cond.p.f: 22.
Units: 100. Order: № 71.

**Printing house license**
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

**© Tashkent State University of Law**

## EDITORIAL BOARD

**EDITOR-IN-CHIEF**

*B. Khodjaev* – Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**DEPUTY EDITOR**

*Z. Esanova* – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**EXECUTIVE EDITOR**

*O. Choriev* – Director of the Publishing and Editorial Center of Tashkent State University of Law

**MEMBERS OF EDITORIAL BOARD**

*Y. Kanyazov* – Director of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice, Candidate of Legal Sciences

*J. Tashkulov* – Head of the Department of the Institute of State and Law of the Academy of Sciences, Doctor of Law, Professor

*U. Tukhtasheva* – Deputy Director of the Anti-Corruption Agency, Doctor of Law, Professor

*M. Yasan* – Professor of the Faculty of Law, Balikesir University (Turkey)

*S. Ma'mun* – Lecturer at Universitas Islam Negeri (Indonesia)

*Sh. Asadov* – Head of the Department of Legal Education and Forensic Examination of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

*I. Ergashev* – Professor of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*J. Nematov* – Professor of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*M. Aminjonova* – Associate Professor of the Department of Organization of Control over the Execution of Legislation of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

*M. Rakhimov* – Head of the Research Center of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

*I. Djuraev* – Head of the Department of Jucidiary, Advocacy and Law Enforement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

*O. Narzullaev* – Professor of the Department of Environmental Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*F. Makhmudov* – Deputy Director of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice, Doctor of Law, Associate Professor

*M. Kadirova* – Acting Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*I. Yakubova* – Acting Professor of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*A. Mukhamedjanov* – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

*N. Niyazova* – Professor of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences

# MUNDARIJA


12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

11 **ESHTURDIYEVA FARANGIZ BAXODIR QIZI**
Neyrohuquqlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish: sun'iy intellekt davrida O'zbekiston huquq ijodkorligi siyosatining ustuvor yo'nalishlari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

23 **XUJANAZAROV AZIZJON ANVAROVICH**
Raqamlashtirish davrida norma ijodkorligining zamonaviy tendensiyalari tahlili

34 **ALIYEV ILHOMJON MUROD O'G'LI**
O'zbekistonda sun'iy intellekt va raqamli o'zgarish: "aqlli millat"ni shakllantirishning huquqiy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

43 **BURXANOVA LEYLA MARIUSOVNA**
2026-yil – "Mahallani rivojlantirish va jamiyat farovonligini oshirish yili" ustuvorliklari kontekstida nikoh tuzishning huquqiy asoslarini takomillashtirish

58 **KORYOG'DIYEV BOBUR UMIDJON O'G'LI, UMARALIYEV ISMOILJON IBROHIMJON O'G'LI, RAMIDDINOV BURXONIDDIN JALOLIDDINOVICH**
O'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarning huquqiy rejimi: O'zbekiston qonunchiligidagi muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

67 **XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O'G'LI**
Sud chaqiruvlari tizimida raqamli islohotlar va sun'iy intellekt imkoniyatlari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

76 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**
O'zbekiston Respublikasida biogaz texnologiyalaridan foydalanishni huquqiy tartibga solishning ekologik jihatlari

88 **ALLOBERDIYEVA DURDONA O'KTAMJON QIZI**
Turistik faoliyatning atrof-muhitga ta'siri va uni huquqiy tartibga solish masalalari

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

95 **QODIRALIYEV SADDAM BAXTIYORJON O'G'LI**
Advokatga nisbatan qo'llanadigan intizomiy jazo chorasi sifatida litsenziyaning amal qilishini tugatishning nazariy-huquqiy tahlili

102 **MUHAMMADJONOV ABRORJON AKMALJON O'G'LI**
Xorijiy mamlakatlar prokuratura modellarining qiyosiy-huquqiy tahlili

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

112 **ATANIYAZOV JASURBEK KURBANBAYEVICH**
Jinoyat ishlarini tergov qilishda tergovchining protsessual mustaqilligi kafolatlarini kengaytirish xususiyatlari

126 **MAMADALIYEV UMID YULDASHEVICH**
O‘zbekiston Respublikasida ekstraditsiya institutini tartibga solinishi: holati, muammolari va tendensiyalari

137 **FATULLAYEV SHODMONBEK MADATOVICH**
Jinoyat protsessidagi ekspertiza instituti: solishtirma-huquqiy tahlil

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

146 **RAXMANOV SHUXRAT NAIMOVICH**
Xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqi manbalarining tizimi va ta’sirchanligi

154 **MO‘MINOV ASILBEK HUSNIDDIN O‘G‘LI**
Raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishga oid BMT rezolyutsiyalari: ahamiyati hamda samaradorligi

164 **IBODULLAYEV SAYIDKOMIL BEKPO‘LAT O‘G‘LI**
Markaziy osiyoda ichimlik suvi tanqisligi tahdidi

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

179 **BEKBO‘TAYEVA LOBAR SHOVKAT QIZI**
Muqobil vasiylik tizimini normativ-huquqiy tartibga solish: O‘zbekiston qonunchiligining tizimli tahlili


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

# СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

11 **ЭШТУРДИЕВА ФАРАНГИЗ БАХОДИР КИЗИ**
Имплементация нейроправ в национальное законодательство: приоритетные направления правотворческой политики Узбекистана в эпоху искусственного интеллекта

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

23 **ХУЖАНАЗАРОВ АЗИЗЖОН АНВАРОВИЧ**
Анализ современных тенденций нормотворчества в эпоху цифровизации

34 **АЛИЕВ ИЛХОМЖОН МУРОД УГЛИ**
Искусственный интеллект и цифровая трансформация в Узбекистане: правовые основы формирования «умной нации»

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

43 **БУРХАНОВА ЛЕЙЛА МАРИУСОВНА**
Совершенствование правовых основ заключения брака в контексте приоритетов 2026 года – года развития махалли и повышения благосостояния общества

58 **КОРЁГДИЕВ БОБУР УМИДЖОН УГЛИ, УМАРАЛИЕВ ИСМАИЛЖОН ИБРОХИМЖОН УГЛИ, РАМИДДИНОВ БУРХОНИДДИН ЖАЛОЛИДДИНОВИЧ**
Правовой режим самовольно возведённых строений: проблемы и направления совершенствования законодательства Узбекистана

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

67 **ХУДОЙНАЗАРОВ ДАДАХОН АВАЗ УГЛИ**
Цифровые реформы и возможности искусственного интеллекта в системе судебных вызовов

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

76 **РАЖАБОВ НАРИМАН ШАРИФБАЕВИЧ**
Экологические аспекты правового регулирования использования биогазовых технологий в Республике Узбекистан

88 **АЛЛОБЕРДИЕВА ДУРДОНА УКТАМЖОН КИЗИ**
Воздействие туристической деятельности на окружающую среду и вопросы его правового регулирования

12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

95 **КОДИРАЛИЕВ САДДАМ БАХТИЁРЖОН УГЛИ**
Теоретико-правовой анализ прекращения действия лицензии как меры дисциплинарного взыскания, применяемой в отношении адвоката

102 **МУХАММАДЖОНОВ АБРОРЖОН АКМАЛЖОН УГЛИ**
Сравнительно-правовой анализ моделей прокуратуры в зарубежных странах

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

112 **АТАНИЯЗОВ ЖАСУРБЕК КУРБАНБАЕВИЧ**
Особенности расширения гарантий процессуальной независимости следователя при расследовании уголовных дел

126 **МАМАДАЛИЕВ УМИД ЮЛДАШЕВИЧ**
Правовое регулирование института экстрадиции в Республике Узбекистан: состояние, проблемы и тенденции

137 **ФАТУЛЛАЕВ ШОДМОНБЕК МАДАТОВИЧ**
Институт судебной экспертизы в уголовном процессе: сравнительно-правовой анализ

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

146 **РАХМАНОВ ШУХРАТ НАИМОВИЧ**
Система и эффективность источников дипломатического права международных организаций

154 **МУМИНОВ АСИЛБЕК ХУСНИДДИН УГЛИ**
Резолюции ООН по защите личных прав и свобод в цифровой среде: значение и эффективность

164 **ИБОДУЛЛАЕВ САИДКОМИЛ БЕКПУЛАТ УГЛИ**
Угроза дефицита питьевой воды в Центральной Азии

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

179 **БЕКБУТАЕВА ЛОБАР ШОВКАТ КИЗИ**
Нормативно-правовое регулирование альтернативной опеки: системный анализ законодательства Узбекистана

# CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

11 **ESHTURDIEVA FARANGIZ BAKHODIR KIZI**
Implementation of neuro-rights into national legislation: priorities of Uzbekistan's law-making policy in the era of artificial intelligence

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

23 **KHUJANAZAROV AZIZJON ANVAROVICH**
Analysis of modern trends in norm-making in the era of digitalization

34 **ALIEV ILKHOMJON MUROD UGLI**
Artificial intelligence and digital transformation in Uzbekistan: legal frameworks for the formation of a "smart nation"

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

43 **BURKHANOVA LEYLA MARIUSOVNA**
Improvement of the legal framework for marriage registration in the context of the priorities of 2026 – the year of mahalla development and the improvement of social welfare

58 **KORYOGDIEV BOBUR UMIDJON UGLI, UMARALIYEV ISMOILJON IBROHIMJON UGLI, RAMIDDINOV BURKHONIDDIN JALOLIDDINOVICH**
Legal regime of unauthorized constructions: problems of the legislation of Uzbekistan and directions for its improvement

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

67 **KHUDOYNAZAROV DADAKHON AVAZ UGLI**
Digital reforms and artificial intelligence opportunities in the court summons system

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

76 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAEVICH**
Environmental aspects of legal regulation of biogas technologies in the Republic of Uzbekistan

85 **ALLOBERDIEVA DURDONA UKTAMJON KIZI**
The impact of tourism activity on the environment and issues of its legal regulation

12.00.07 – JUDICIAL BRANCH. PROSECUTOR'S CONTROL. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT. ADVOCACY

95 **QODIRALIEV SADDAM BAKHTIYORJON UGLI**
Theoretical and legal analysis of the termination of a license as a disciplinary punishment measure applied to an advocate

102 **MUHAMMADJONOV ABRORJON AKMALJON UGLI**
Comparative legal analysis of prosecutor's models of foreign countries

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

112 **FATULLAYEV SHODMONBEK MADATOVICH**
The institute of expertise in criminal proceedings: a comparative legal analysis

126 **MAMADALIEV UMID YULDASHEVICH**
Regulation of the institute of extradition in the Republic of Uzbekistan: state, problems, and trends

137 **FATULLAYEV SHODMONBEK MADATOVICH**
The institute of expertise in criminal proceedings: a comparative legal analysis

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

146 **RAKHMANOV SHUKHRAT NAIMOVICH**
System and effectiveness of the sources of diplomatic law of international organizations

154 **MUMINOV ASILBEK HUSNIDDIN UGLI**
UN resolutions on the protection of personal rights and freedoms in the digital environment: relevance and efficiency

164 **IBODULLAEV SAYIDKOMIL BEKPULAT UGLI**
The threat of drinking water shortage in Central Asia

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

179 **BEKBUTAEVA LOBAR SHOVKAT KIZI**
Normative and legal regulation of alternative care: a system analysis of Uzbekistan’s legislation


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

Kelib tushgan / Получено / Received: 24.04.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 04.06.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.06.2026

**DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2026.10.2./MOQB6901**
**UDC: 341.123(045)(575.1)**

# RAQAMLI MUHITDA SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARNI HIMOYA QILISHGA OID BMT REZOLYUTSIYALARI: AHAMIYATI HAMDA SAMARADORLIGI

**Moʻminov Asilbek Husniddin oʻgʻli,**
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari
shoʻbasi oʻqituvchisi
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-7417-2998
e-mail: asilbekmuminov86@gmail.com

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola BMT Bosh Assambleyasining 68/167-sonli va 69/166-sonli rezolyutsiyalarini xalqaro huquqiy tahlil qilishga bagʻishlangan boʻlib, raqamli muhitda shaxsiy huquq hamda erkinliklarni himoya qilish sohasidagi normativ tartibning shakllanishi keng koʻlamda oʻrganilgan. Maqolada ushbu rezolyutsiyalarning qabul qilinishiga sabab boʻlgan siyosiy va huquqiy shart-sharoitlar, xususan, 2013-yilda Snouden oshkor qilgan maxfiy maʼlumotlar natijasida yuzaga kelgan xalqaro munosabat kontekstida koʻrib chiqiladi. Rezolyutsiyalarning yumshoq huquq (soft law) sifatidagi normativ kuchi va amaliy samaradorligi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning 17-moddasi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi, BMT Inson huquqlari boʻyicha Oliy komissari hisobotlari va Yevropa Inson huquqlari sudi amaliyoti bilan qiyosiy tahlil asosida oʻrganilgan. Maqolada zarurlik, mutanosiblik, qonuniylik va shaffoflik tamoyillarining raqamli kuzatuvga tatbiq etilishi, shuningdek, hududdan tashqarilik muammosi va xususiy kompaniyalar javobgarligi masalalari ham alohida tahlil qilingan. Natijada rezolyutsiyalarning normativ jihatdan muhim, ammo amaliy samaradorligi cheklangan dastlabki qadam ekanligi asoslangan. Muallif raqamli suverenitet, sunʼiy intellekt va majburiy xalqaro mexanizmlar yaratilishi zarurligini taʼkidlab, haqiqiy normativ yutuq kelajakdagi rivojlanish yoʻnalishlariga bogʻliq ekani haqida xulosa qilgan.*

***Kalit soʻzlar:*** *raqamli muhit, shaxsiy huquq va erkinliklar, maxfiylik huquqi, BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari, ommaviy kuzatuv, shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish*

## РЕЗОЛЮЦИИ ООН ПО ЗАЩИТЕ ЛИЧНЫХ ПРАВ И СВОБОД В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ: ЗНАЧЕНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ

**Муминов Асилбек Хусниддин угли**,
преподаватель сектора международного права и прав человека
Ташкентского государственного юридического университета

***Аннотация.*** *Настоящая статья посвящена международно-правовому анализу резолюций Генеральной Ассамблеи ООН № 68/167 и № 69/166, а также комплексному исследованию формирования нормативного регулирования в сфере защиты личных прав и свобод в цифровой среде. В статье рассматриваются политические и правовые предпосылки принятия указанных резолюций, в частности контекст международных отношений, сложившийся после раскрытия Эдвардом Сноуденом секретной информации в 2013 году. Нормативная сила и практическая эффективность данных резолюций как актов мягкого права (soft law) исследуются на основе сравнительного анализа со статьёй 17 Международного пакта о гражданских и политических правах, статьёй 12 Всеобщей декларации прав человека, докладами Верховного комиссара ООН по правам человека и практикой Европейского суда по правам человека. В статье также отдельно анализируются вопросы применения принципов*

*необходимости, соразмерности, законности и прозрачности к цифровому наблюдению, а также проблемы экстерриториальности и ответственности частных компаний. В результате обоснован вывод о том, что указанные резолюции представляют собой важный нормативный, но ограниченно эффективный в практическом отношении первоначальный шаг. Автор подчёркивает необходимость развития цифрового суверенитета, регулирования искусственного интеллекта и создания обязательных международных механизмов, отмечая, что реальные нормативные достижения зависят от дальнейших направлений развития международного права.*

***Ключевые слова:*** *цифровая среда, личные права и свободы, право на приватность, резолюции Генеральной Ассамблеи ООН, массовое наблюдение, защита персональных данных*

## UN RESOLUTIONS ON THE PROTECTION OF PERSONAL RIGHTS AND FREEDOMS IN THE DIGITAL ENVIRONMENT: RELEVANCE AND EFFICIENCY

**Muminov Asilbek Husniddin ugli,**
Lecturer of the Department of International Law and Human Rights,
Tashkent State University of Law

***Abstract.*** *This article is dedicated to the international legal analysis of UN General Assembly Resolutions No. 68/167 and No. 69/166, and extensively examines the formation of a regulatory framework in the field of protecting personal rights and freedoms in the digital environment. The article examines the political and legal prerequisites that led to the adoption of these resolutions, particularly in the context of international relations resulting from confidential information leaked by Snowden in 2013. The normative force and practical effectiveness of resolutions as soft law were studied on the basis of a comparative analysis with Article 17 of the International Covenant on Civil and Political Rights, Article 12 of the Universal Declaration of Human Rights, reports of the UN High Commissioner for Human Rights and the practice of the European Court of Human Rights. The article separately analyzes the application of the principles of necessity, proportionality, legality, and transparency to digital surveillance, as well as the problem of extraterritoriality and the liability of private companies. As a result, it is substantiated that resolutions are a first step that is normatively important but has limited practical effectiveness. The author emphasizes the need to create digital sovereignty, artificial intelligence, and compulsory international mechanisms, concluding that real regulatory progress depends on future development directions.*

***Keywords:*** *digital environment, personal rights and freedoms, the right to privacy, UN General Assembly resolutions, public observation, protection of personal data*

### Kirish

XXI asr boshlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalarini tubdan o‘zgartirdi. Internet va raqamli muhit bir tomondan fuqarolarga yangi imkoniyatlar, axborotga erkin kirish, ifoda erkinligi, global muloqotlarni ochib bergan bo‘lsa, boshqa tomondan shaxsiy huquq va erkinliklarga nisbatan yangi xavf-xatarlar manbayi bo‘lib qoldi. Davlatlar va transmilliy korporatsiyalar texnologik imkoniyatlaridan foydalanib fuqarolarni ommaviy kuzatuv ostiga olishi, shaxsiy ma’lumotlarni ruxsatsiz to‘plashi va qayta ishlashi zamonaviy xalqaro huquqning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi (Solove, 2009). Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari insoniyatning shaxsiy huquq va erkinliklariga ham amaliy jihatdan, ham nazariy jihatdan naqadar ulkan ta’sir ko‘rsatayotganini faqat raqamlar orqali ifodalab bo‘lmaydi, bu ta’sir xalqaro huquq tizimining o‘zini ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Ushbu muammoning global miqyosdagi keskinligi, ayniqsa, 2013-yilda AQSHning Milliy xavfsizlik agentligi (MXA) tomonidan amalga oshirilgan ommaviy kuzatuv dasturlari haqidagi ma’lumotlar oshkor qilingach yaqqol namoyon bo‘ldi. Sobiq razvedka xodimi Edvard Snouden tomonidan oshkor etilgan ushbu ma’lumotlar nafaqat alohida davlatlar, balki butun xalqaro hamjamiyatning shaxsiy huquq va erkinliklarni raqamli muhitda himoya qilish masalasiga jiddiy e’tibor qaratishiga turtki berdi (Greenwald, 2014). Oshkor qilingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, AQSH va Buyuk Britaniya nafaqat o‘z fuqarolarini, balki ittifoqchi davlatlar rahbarlarini, xorijiy fuqarolar

va xalqaro tashkilot vakillarini ham keng ko‘lamdagi elektron kuzatuv orqali nazorat ostiga olgan. Bundan tashqari, kuzatuv dasturlari yirik texnologiya kompaniyalari hisoblangan “Google”, “Facebook”, “Microsoft”, “Apple”, “Yahoo” kabilar bilan hamkorlikda, ko‘pincha ularning ma’lumotlar bazalariga to‘g‘ridan to‘g‘ri kirish orqali amalga oshirilgani ma’lum bo‘ldi (MacAskill & Dance, 2013). Ushbu faktlar shaxsiy huquq va erkinliklarning raqamli muhitda xavf ostida ekanini global jamoatchilik e’tiboriga jiddiy tarzda olib chiqdi va xalqaro hamjamiyatning munosabat bildirishi zaruratini kun tartibiga qo‘ydi.

Xalqaro hamjamiyatning institutsional munosabati, eng avvalo, BMT Bosh Assambleyasi orqali ifodalandi. 2014-yilda qabul qilingan 68/167-sonli rezolyutsiya (United Nations General Assembly, 2014) va 2015-yilda qabul qilingan 69/166-sonli rezolyutsiya (United Nations General Assembly, 2015) raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishning xalqaro huquqiy asoslarini belgilashga qaratilgan birinchi yirik xalqaro hujjatlar sifatida tarixga kirdi. Ushbu rezolyutsiyalar xalqaro huquq doktrinasida turlicha baholandi. Bir tomondan, ular muhim normativ qadam sifatida qadrlansa (Milanovic, 2015), boshqa tomondan, ularning *yumshoq huquq* tabiati va amaliy samaradorligining cheklanganligi tanqid ostiga olindi (Johns, 2013).

Raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish sohasidagi xalqaro huquqiy tartibni to‘liq tushunish uchun, avvalo, ushbu huquqlarning universal xalqaro hujjatlardagi mustahkamlanishini va ularning raqamli muhitga tatbiq etilishidagi cheklovlarni ko‘rib chiqish lozim. Xalqaro inson huquqlari sohasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi (United Nations General Assembly, 1948) va Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 17-moddasi (United Nations, 1966) shaxsiy hayot daxlsizligi va maxfiylik huquqining asosiy normativ manbalari sifatida xizmat qiladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida hech kim o‘zining shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashishi, uning uy-joyiga, yozishmalariga tajovuz qilinishi yoki sharaf va obro‘siga xavf solinishiga duchor etilmasligi va har bir inson bunday aralashuvlar va tajovuzlardan qonun tomonidan himoyalanish huquqiga egaligi belgilab qo‘yilgan (United Nations General Assembly, 1948). Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 17-moddasi (United Nations, 1966) esa ushbu kafolatlarni yanada kengaytiradi va ularni huquqiy jihatdan majburiy tarzda belgilaydi. Ushbu moddada hech kim shaxsiy hayotiga, oilasiga, uy-joyiga yoki yozishmalariga o‘zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof ravishda aralashish, shuningdek, uning sharaf va obro‘siga tajovuz qilish obyektiga aylantirilishi mumkin emasligi belgilangan. Ushbu ikkala norma ham an’anaviy inson huquqlari hujjatlari sifatida, asosan davlat-fuqaro munosabatini tartibga solishga qaratilgan.

Ushbu normalarning interpretatsiyasida Inson huquqlari qo‘mitasining 16-sonli Umumiy izohi muhim hujjat sifatida xizmat qiladi (Human Rights Committee, 1988). Qo‘mita ushbu izohda shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining “telefon, telegraf va boshqa kommunikatsiya shakllarini kuzatish va suhbatlarni yozib olish taqiqlanishi kerak” degan talabni o‘z ichiga olishi lozimligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, qo‘mita “kompyuterlar, ma’lumotlar bazalari va boshqa qurilmalarda shaxsiy ma’lumotlarni to‘plash va saqlash qonun bilan tartibga solinishi lozim” degan muhim qoidani ham belgilaydi. Ushbu talablar texnologik jihatdan neytral tarzda ifodalangani sababli ular raqamli aloqa va elektron ma’lumotlar almashishiga ham tatbiq etilishi mumkin. Biroq Umumiy izoh 1988-yilda, ya’ni internet ommaviy foydalanuvchi xizmatiga aylanishidan ancha avval qabul qilingan bo‘lib, u raqamli muhitning o‘ziga xos xususiyatlarini, ya’ni ommaviy ma’lumotlar to‘plash, katta ma’lumotlar tahlili, metadata kuzatuvi, bulutli saqlash tizimlariga tajovuz kabi muammolarni to‘liq qamrab ololmaydi (Joyce, 2015). Bu esa mavjud normativ bazaning raqamli muhit uchun yaratilmaganini ko‘rsatib beradi.

Mintaqaviy darajada ham shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishning muhim mexanizmlari mavjud. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasining 8-moddasi “xususiy va oilaviy hayotga hurmat” huquqini kafolatlaydi (Council of Europe, 1950) hamda Yevropa Inson huquqlari sudi ushbu modda doirasida raqamli kuzatuv masalalariga oid muhim huquqiy standartlar ishlab chiqqan. Xususan, sud *Klass and Others v. Germany* (1978) ishida va keyinchalik *Malone v. the United Kingdom* (1984) ishida davlat kuzatuvining “qonuniy asosi” bo‘lishi, ya’ni

aniq va oldindan taxmin qilsa boʻladigan qonun hujjatlarida belgilanishi zarurligi standartini oʻrnatdi. Ushbu standartlar raqamli kuzatuv sohasida ham qoʻllanishi *Roman Zakharov v. Russia* (2015) ishida va *Big Brother Watch and Others v. the United Kingdom* (2021) ishida tasdiqlandi. Biroq ushbu mintaqaviy mexanizmlar universal miqyosda tatbiq etilmaydi va eng muhimi, AQSH kabi yirik kuzatuv dasturlarini amalga oshiruvchi davlatlar Yevropa Inson huquqlari konvensiyasiga ishtirokchi emas.

Ommaviy kuzatuv muammosiga xalqaro javob berishda BMT tizimining bir qancha organlari muhim rol oʻynagan. Maxsus maʼruzachi La Rue 2013-yilda tayyorlagan hisobotida raqamli muhitdagi kuzatuvning soʻz erkinligi va maxfiylik huquqiga taʼsirini tahlil qildi (La Rue, 2013). Shuningdek, terrorizmga qarshi kurashishda inson huquqlari boʻyicha maxsus maʼruzachi Ben Emmersonning 2014-yildagi hisoboti ham ommaviy kuzatuvning inson huquqlari talablariga zid ekanligini aniq-ravshan koʻrsatib berdi. Biroq ushbu hisobotlar ham *yumshoq huquq* xarakteriga ega boʻlib, ular davlatlar uchun majburiy talablar oʻrnatmaydi. Natijada BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyalar qabul qilish zarurati yanada yaqqol namoyon boʻldi.

Shunday qilib, BMT Bosh Assambleyasining raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishga oid rezolyutsiyalari qabul qilinishiga qadar xalqaro huquqda ushbu sohaga oid maxsus universal hujjat mavjud boʻlmagan. Mavjud normalar raqamli muhit uchun yaratilmagandi va ularni raqamli kontekstga tatbiq etish turli muammolarga olib kelardi. Aynan shu normativ boʻshliq Bosh Assambleya rezolyutsiyalarining paydo boʻlishiga asosiy shart-sharoit yaratdi. Biroq shuni taʼkidlash lozimki, ushbu rezolyutsiyalar mutlaqo yangi normalar yaratgan emas, ular koʻproq mavjud normalarni raqamli kontekstda qayta tasdiqlash va ularni yangi realizatsiyaga moslashtirish funksiyasini bajaradi. Bu esa ushbu hujjatlarning huquqiy kuchini belgilashda markaziy masalaga aylanadi.

**Metodlar**

Ushbu maqolada xalqaro huquq ixtisosligiga xos bir necha oʻzaro toʻldiruvchi ilmiy metodlardan foydalanilgan. Qiyosiy-huquqiy metod asosiy tadqiqot usuli sifatida qoʻllangan boʻlib, u BMT Bosh Assambleyasining 68/167-sonli va 69/166-sonli rezolyutsiyalarini bir-biri bilan, shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasi va Fuqaroviy va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktning 17-moddasi kabi birlamchi xalqaro huquqiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini bergan. Tizimli tahlil metodi orqali rezolyutsiyalar xalqaro huquqning manbalari tizimida, shuningdek, shartnomaviy huquq, *yumshoq huquq* va xalqaro odat huquqi kontekstida tahlil qilingan.

**Natijalar**

68/167-sonli va 69/166-sonli rezolyutsiyalar (United Nations General Assembly, 2014; 2015) raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish sohasida xalqaro huquqiy standartlar shakllanishining dastlabki institutsional koʻrinishi hisoblanadi. Ushbu rezolyutsiyalar 57 va undan ortiq davlat tomonidan hammuallif sifatida taqdim etilib, konsensus asosida qabul qilinganligi ularni davlatlarning keng *opinio juris (*huquqiy marburiyat sifatida tan olish*)*ini aks ettirishini koʻrsatadi. Bu esa xalqaro odat huquqining shakllanishi uchun zarur boʻlgan bir shart, yaʼni davlatlarning muayyan xatti-harakatni huquqiy majburiyat sifatida qabul qilishining mavjudligini bildiradi.

BMT Inson huquqlari boʻyicha Oliy komissarining idorasi (OHCHR)ning 2014-yildagi hisoboti (Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights, 2014) tahlili shuni koʻrsatadiki, rezolyutsiyalarning umumiy normativ chaqiriqlari zarurlik, mutanosiblik, qonuniylik va shaffoflik tamoyillari koʻrinishida aniq meʼyoriy mezonlarga aylantirilgan. Ushbu mezonlar Fuqaroviy va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi paktning 17-moddasini raqamli muhitga tatbiq etishning operatsional standarti sifatida xizmat qila boshlagan va keyinchalik Yevropa Inson huquqlari sudining *Zakharov* va *Big Brother Watch* ishlaridagi qarorlarida mustahkamlangan. 69/166-sonli rezolyutsiyaning 4(e)-bandida mustahkamlangan samarali huquqiy vosita talabi va metadata himoyasining tan olinishi oldingi rezolyutsiyaga nisbatan aniq normativ ilgarilashni ifodalaydi. 2015-yilda tashkil etilgan Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi boʻyicha maxsus maʼruzachi instituti xalqaro darajada ushbu sohadagi normativ rivojlanishni doimiy kuzatib boruvchi institutsional mexanizm sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

**Muhokama**

2013-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan konsensus asosida qabul qilingan 68/167-sonli "Raqamli asrda maxfiylik huquqi" rezolyutsiyasi xalqaro inson huquqlari sohasining raqamli muhitga tatbiqida muhim dastlabki qadam sifatida baholanishi lozim (United Nations General Assembly, 2014). Rezolyutsiyaning 57 davlat tomonidan hammuallif sifatida taqdim etilishi va rasmiy ovoz berish oʻtkazilmagan holda konsensus asosida qabul qilinishi oʻzi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu holat xalqaro hamjamiyatning raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish zaruriyati haqidagi keng koʻlamdagi konsensusni aks ettiradi. Rezolyutsiyaning tashabbuskori sifatida Germaniya va Braziliyaning chiqishi ham tasodifiy emas. Chunki Snouden tomonida oshkor qilingan oʻta maxfiy maʼlumotlar bu ikki davlatga ham jiddiy taʼsir oʻtkazgan edi. Germaniya kansleri Angela Merkelning telefoni AQSH razvedkasi tomonidan tinglanganligi aniqlangan, Braziliya prezidenti *Dilma Rusef*ning elektron pochtasi esa kuzatuv ostiga olingandi. Bu siyosiy fon rezolyutsiyaning nafaqat huquqiy, balki siyosiy munosabat belgisi ekanligi va kuzatuv muammosiga xalqaro diqqatni jalb etishga qaratilganini koʻrsatadi (Joyce, 2015).

Rezolyutsiyaning meʼyoriy mazmunini tahlil qilishda, avvalo, uning tuzilishiga eʼtibor qaratish lozim. Rezolyutsiya muqaddima va operativ qismdan iborat. Muqaddima qismida texnologik rivojlanishning ikki tomonlama tabiati, bir tomondan shaxsiy huquq va erkinliklarni kengaytiruvchi, boshqa tomondan ularni cheklovchi omil sifatidagi roli qayd etiladi. Xususan, muqaddima qismida "…axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, bir tomondan, butun dunyo boʻylab shaxslarga yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini bersa, boshqa tomondan, hukumatlar, kompaniyalar va shaxslarning kuzatuv, tinglash va maʼlumotlar toʻplash imkoniyatlarini kuchaytiradi, bu esa inson huquqlari buzilishlariga olib kelishi mumkin", deb taʼkidlaydi.

Rezolyutsiyaning markaziy metodologik "oflayn-onlayn tengligi" tamoyili operativ 3-bandda mustahkamlangan boʻlib, unda aytilishicha, "odamlarning oflayn holda ega boʻlgan huquqlari, shu jumladan, maxfiylik huquqi onlayn holda ham himoya qilinishi lozim". Ushbu tamoyil nazariy jihatdan amaliy va qulay koʻrinadi, biroq u yangi normalar yaratish oʻrniga mavjud xalqaro inson huquqlari normalarini raqamli muhitga tatbiq etishni tavsiya qiladi. Biroq xalqaro huquq nazariyotchilari ushbu yondashuvning metodologik cheklovlarini koʻrsatib bergan. Muammo shundaki, raqamli muhitdagi shaxsiy huquq va erkinliklar buzilishlarining koʻlami, tezligi va tabiati oflayn muhitdagi buzilishlardan tubdan farq qiladi. Ommaviy raqamli kuzatuv bir vaqtning oʻzida millionlab odamlarning shaxsiy maʼlumotlarini yigʻa oladi va bu holat anʼanaviy, individual shikoyatlarga asoslangan inson huquqlari mexanizmlari bilan hal qilib boʻlmaydigan muammolarni keltirib chiqaradi (Solove, 2013). Oflayn-onlayn tenglik tamoyili ushbu sifat farqini yetarlicha hisobga olmaydi.

Xalqaro huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan, 68/167-sonli rezolyutsiyaning huquqiy tabiatini aniqlash muhim metodologik masaladir. Bosh Assambleya rezolyutsiyalari BMT Nizomining 10–13-moddalari asosida qabul qilinadi va ular qoida tariqasida, BMT aʼzo-davlatlari uchun huquqiy jihatdan majburiy majburiyatlar belgilamaydi. Bu holat ushbu rezolyutsiyani yumshoq huquq hujjati sifatida tavsiflashga asos beradi. Biroq xalqaro huquq nazariyasida yumshoq huquq hujjatlarining normativ ahamiyati toʻgʻrisida faol munozaralar olib borilmoqda. Chinkin (1989) taʼkidlaganidek, *yumshoq huquq* hujjatlari rasmiy majburiylik kuchiga ega boʻlmasa ham, ular xalqaro huquq rivojlanishida muhim katalizator vazifasini oʻtaydi. Ular davlatlarning *opinio juris,* yaʼni muayyan xatti-harakatlar xalqaro huquq nuqtayi nazaridan majburiy ekanligiga ishonchini shakllantiradi va bu orqali xalqaro odat huquqining rivojlanishiga hissa qoʻshadi (Shelton, 2000). Bu nuqtayi nazardan 68/167-sonli rezolyutsiya davlatlarning raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish huquqiy majburiyat ekanligiga ishonchini koʻrsatuvchi muhim dalil boʻla oladi.

68/167-sonli rezolyutsiyaning 5-bandi boʻyicha 2014-yilda tayyorlangan BMT Inson huquqlari boʻyicha Oliy komissari idorasi (OHCHR) hisoboti raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish sohasidagi xalqaro huquqiy tahlilning sifat jihatidan yangi darajasini ifodalaydi (Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights, 2014). Hisobot

raqamli muhitdagi kuzatuv muammosini faqat texnik masala sifatida emas, balki xalqaro inson huquqlari sohasining tizimli muammosi sifatida koʻrib chiqadi va bir qancha muhim xulosalar chiqaradi. Hisobotning ahamiyati shundan iboratki, u rezolyutsiyaning umumiy va siyosiy tildagi chaqiriqlarini konkret normativ mezonlarga aylantirdi.

Hisobotning birinchi muhim xulosasi ommaviy raqamli kuzatuvning oʻz mohiyatiga koʻra shaxsiy huquq va erkinliklarni buzishi mumkinligiga oid ekanligidir. OHCHR taʼkidlaganidek, "Ommaviy kuzatuv dasturlari oʻz mohiyatiga koʻra mutanosib emas va shu boisdan ular Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi paktning 17-moddasida belgilangan standartlarga mos kelmaydi". Bu xulosa muhim, chunki u kuzatuvning koʻlami va muayyan nishonga ega emasligi masalasini markazga olib chiqadi. Anʼanaviy xalqaro inson huquqlari sohasida kuzatuv qatʼiy individual asosda yaʼni muayyan shaxsga nisbatan aniq shubha boʻlganda amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Ommaviy kuzatuv esa bu prinsipni inkor etadi, yaʼni u shubhasiz fuqarolarni ham kuzatuv obyektiga aylantiradi va shu bilan "aybsizlik prezumpsiyasi" tamoyilini buzadi. Bu muhim meʼyoriy pozitsiya keyinchalik bir qancha Yevropa sudi qarorlarida ham aks etdi.

Hisobotning ikkinchi muhim xulosasi raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishda zarurlik, mutanosiblik, qonuniylik va shaffoflik tamoyillarining ahamiyatiga oiddir. OHCHR raqamli kuzatuv faqat quyidagi shartlar bajarilgandagina xalqaro inson huquqlari sohasi talablariga muvofiq boʻlishi mumkinligini belgilaydi. Birinchidan, kuzatuv qonuniy asosga ega boʻlishi, yaʼni aniq va taxmin qilsa boʻladigan qonun hujjatida belgilanishi, ikkinchidan, muayyan qonuniy maqsadga erishish uchun zarur boʻlishi, uchinchidan, erishilayotgan maqsadga mutanosib boʻlishi, toʻrtinchidan, mustaqil nazorat ostida amalga oshirilishi va beshinchidan, manfaatdor shaxslarga samarali huquqiy vositalar taʼminlanishi kerak. Ushbu mezonlar toʻplami raqamli kuzatuvni baholashning normativ standartlarini belgilash nuqtayi nazaridan katta ahamiyat kasb etadi. Biroq ularning amalda qoʻllanishi koʻpincha davlatlarning "milliy xavfsizlik" va "terrorizmga qarshi kurashish" kabi umumiy asoslanishlar ortiga yashirinishi bilan toʻqnash keladi.

Hisobotning uchinchi muhim xulosasi xususiy kompaniyalar, ayniqsa, yirik texnologiya korporatsiyalari masalasiga taalluqlidir. OHCHR "hukumatlarning raqamli kuzatuvni amalga oshirish va osonlashtirishda xususiy sektorga tobora koʻproq tayanayotganining kuchli dalillari" mavjudligini taʼkidlaydi. Bu holat xalqaro inson huquqlari sohasida anʼanaviy ravishda davlat va fuqaro oʻrtasidagi munosabatga qaratilgan eʼtiborni kengaytirish va xususiy subyektlarning ham inson huquqlari boʻyicha javobgarligini belgilash zaruriyatini koʻrsatadi. Bu borada Jon Raggining 2011-yildagi "Himoya qilish, hurmat qilish va bartaraf etish" doirasi asosida ishlab chiqilgan Biznes va inson huquqlari boʻyicha rahbariy tamoyillari (BM rahbariy tamoyillari) muhim rol oʻynaydi (Ruggie, 2011). Biroq ushbu tamoyillar ham majburiy kuchga ega boʻlmagan *yumshoq huquq* hujjati hisoblanadi va kompaniyalarning ularni amalga oshirishi asosan ixtiyoriy xarakter kasb etadi.

Hisobotda koʻtarilgan toʻrtinchi muhim masala hududdan tashqarilik (*extraterritoriality*) muammosidir. Raqamli kuzatuv koʻpincha chegaralardan tashqarida amalga oshiriladi, yaʼni bir davlat boshqa davlat fuqarolarini yoki oʻz fuqarolarini boshqa davlat hududida kuzatadi. Anʼanaviy xalqaro inson huquqlari sohasida davlatning majburiyatlari asosan oʻz hududiy nazorati ostidagi shaxslarga nisbatan qoʻllanadi. OHCHR hisoboti "davlatlar oʻz hududidan tashqarida amalga oshirilayotgan kuzatuv faoliyati uchun ham xalqaro inson huquqlari majburiyatlari doirasida javobgardir" degan muhim meʼyoriy pozitsiyani ilgari suradi. Bu pozitsiya xalqaro huquq akademik munozaralarida muhim masala boʻlib, keyinchalik Milanovich kabi tadqiqotchilar tomonidan chuqurroq oʻrganildi.

2014-yil 18-dekabrda qabul qilingan 69/166-sonli rezolyutsiya 68/167-sonli rezolyutsiyaning mantiqiy davomi sifatida raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishning normativ bazasini mustahkamladi va bir qancha muhim yangiliklar kiritdi (United Nations General Assembly, 2015). Rezolyutsiyaning OHCHR hisobotiga asoslanishi uning tahliliy asosini mustahkamladi va avvalgi hujjatga nisbatan ancha konkret normativ mazmun kasb etishiga imkon berdi. Ikki rezolyutsiyaning davomiylik munosabati xalqaro huquqda normalarning bos-

qichma-bosqich shakllanishi jarayonining namunaviy koʻrinishi sifatida oʻrganilishi mumkin.

69/166-sonli rezolyutsiyaning eng muhim yangiligi 4(e)-bandda mustahkamlangan samarali huquqiy vosita (*effective remedy*) talabi boʻldi. Ushbu band davlatlarni “shaxsiy huquq va erkinliklari qonunsiz yoki oʻzboshimchalik bilan amalga oshirilgan kuzatuv natijasida buzilgan shaxslarga xalqaro inson huquqlari majburiyatlariga muvofiq samarali huquqiy himoya vositalariga kirish imkoniyatini ta’minlash”ga chaqiradi. Ushbu talab xalqaro inson huquqlari huquqining umumiy ta’minot tamoyili *ubi jus ibi remedium*, ya’ni huquq mavjud boʻlgan joyda huquqiy vosita ham boʻlishi kerak, degan tamoyilni raqamli muhitga tatbiq etadi. Biroq amalda ushbu talabning bajarilishi jiddiy qiyinchiliklar bilan bogʻliq. Kuzatuvning yashirin tabiati tufayli kuzatuv obyekti boʻlgan shaxs koʻpincha bundan bexabar boʻladi va shu boisdan huquqiy himoya izlay olmaydi. Bu muammo kuzatuv toʻgʻrisida xabardorlik (*notification*) majburiyatining xalqaro huquqiy standart sifatida belgilanishi zaruriyatini koʻrsatadi.

Ikkinchi muhim yangilik Inson huquqlari kengashida maxsus protsedura joriy etilishi imkoniyatini koʻrib chiqish toʻgʻrisidagi chaqiriq boʻldi. 69/166-sonli rezolyutsiyaning 5-bandi Inson huquqlari kengashini “maxfiylik huquqini targʻib qilish va himoya qilish boʻyicha tamoyillar, standartlar va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash va aniqlashtirish” hamda “shu maqsadda maxsus protsedura joriy etish imkoniyatini koʻrib chiqish”ga undadi. Ushbu taklif 2015-yilda amalga oshirildi. Inson huquqlari kengashi Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi boʻyicha maxsus ma’ruzachi lavozimini tashkil etdi. Bu institutsional qadam muhim, chunki maxsus ma’ruzachi davlat amaliyotini muntazam ravishda kuzatib borish, yangi texnologik tahdidlarga munosabat bildirish, mamlakatlar boʻylab tashriflarni amalga oshirish va xalqaro standartlarni yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega boʻldi.

BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalarining raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishdagi amaliy samaradorligini baholash uchun ular orqali erishilgan natijalarga va yuzaga kelgan cheklovlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Xalqaro huquq doktrinasida ushbu masala boʻyicha turlicha, ba’zan diametral qarama-qarshi qarashlar mavjud boʻlib, ularning oʻzi chuqur nazariy ziddiyatlarni aks ettiradi. Ushbu rezolyutsiyalarning samaradorligini baholashda, birinchidan, rezolyutsiyalar normativ oʻzgarishlarga, ya’ni xalqaro va milliy standartlarning rivojlanishiga qanday hissa qoʻshgani, ikkinchidan, ular davlatlarning amaliy xatti-harakatlariga qanday ta’sir koʻrsatgani haqidagi ikkita asosiy mezon qoʻllanishi maqsadga muvofiq.

Rezolyutsiyalarning ijobiy natijalari quyidagi yoʻnalishlarda koʻrinadi. Birinchidan, ular raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish muammosini barqaror ravishda xalqaro kun tartibiga kiritdi. Endilikda ushbu mavzu faqat milliy xavfsizlik yoki texnik tartibga solish masalasi sifatida emas, balki toʻlaqonli xalqaro inson huquqlari muammosi sifatida muhokama qilinmoqda. Bu oʻzgarish kichik koʻrinishi mumkin, ammo xalqaro huquqiy tartibning rivojlanishi nuqtayi nazaridan muhim, chunki u kuzatuv masalasida da’vo qoʻyilishi mumkin boʻlgan normativ bazani shakllantirdi. Ikkinchidan, rezolyutsiyalar asosida 2015-yilda Inson huquqlari kengashida Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi boʻyicha maxsus ma’ruzachi lavozimining tashkil etilishi muhim institutsional yutuq boʻldi. Maxsus ma’ruzachi raqamli kuzatuv muammolarini tizimli kuzatib borishda, yangi texnologiyalarga oid standartlar ishlab chiqishda va davlatlarni hisobdorlikka tortishda muhim rol oʻynamoqda. Uchinchidan, rezolyutsiyalar milliy va mintaqaviy darajada huquqiy islohotlar uchun me’yoriy asos yaratdi. Yevropa Ittifoqining Ma’lumotlarni umumiy himoya qilish reglamentini qabul qilishi va bir qancha davlatlarning shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qonunchiligini yangilashi bu yoʻnalishda ijobiy jarayonlar sifatida baholanishi mumkin.

Biroq rezolyutsiyalarning cheklovlari ham jiddiy va ularni e’tibordan qochirmaslik zarur. Birinchi va asosiy cheklov *yumshoq huquq* tabiatidir. Rezolyutsiyalarning majburiy kuchdan mahrum ekanligi ularning qoʻllanishini siyosiy irodaga bogʻlab qoʻyadi. Kuzatuv dasturlarini amalga oshirgan davlatlar, AQSH va Buyuk Britaniya rezolyutsiyalarni qabul qilib, oʻz amaliyotlarini tubdan oʻzgartirish uchun zarur siyosiy irodani koʻrsatmadi. Bu holat shundan dalolat beradiki, *yumshoq huquq* hujjatlari oʻz-oʻzicha kuchli davlatlarning xalqaro inson huquqlari standartlarini buzadigan xatti-harakatlarini toʻxtata olmaydi,

buning uchun majburiy mexanizmlar zarur. Bu muammoning zamirida xalqaro huquqdagi “uyg‘unlik paradoksi” yotadi ya’ni xalqaro huquq normalarini yaratish va ularga rioya etishni ta’minlash uchun asosiy mexanizm bo‘lgan davlatlarning o‘zi ko‘pincha ushbu normalarga rioya etmaslikning asosiy subyektlariga aylanadi.

Ikkinchi jiddiy cheklov “oflayn-onlayn tengligi” metodologik tamoyilining yetarli emasligidir. Joys va Jonsning tanqidiy tahlillari ko‘rsatganidek (Joyce, 2015; Johns, 2013), raqamli muhitning o‘ziga xos xususiyatlari ommaviy ma’lumotlar to‘plash, katta ma’lumotlar tahlili, algoritmik qaror qabul qilish kabilar an’anaviy inson huquqlari sohasi alohida modelga asoslanadi. U alohida shaxsni, aniq harakatni va individual buzilishni markazga qo‘yadi. Holbuki, raqamli muhitdagi kuzatuv tizimli va ommaviy xarakter kasb etadi. Millionlab shaxsning ma’lumotlari bir vaqtda yig‘iladi, tahlil qilinadi va foydalaniladi. Bu holat individual huquqiy vositalar asosida hal qilib bo‘lmaydigan tizimli muammolarni keltirib chiqaradi. Rezolyutsiyalar bu tizimli o‘lchovni yetarlicha hisobga olmagan va shu boisdan ularning taklif qilayotgan yechimi muammoning ko‘lamiga mos emas.

Uchinchi muhim cheklov hududdan tashqarilik muammosining to‘liq hal qilinmaganligidir. Rezolyutsiyalar hududdan tashqaridagi kuzatuvga nisbatan davlatlarning majburiyatlari haqida aniq normalar belgilamadi. Bu bo‘shliq amalda jiddiy oqibatlarga olib keldi, ya’ni davlatlar boshqa davlatlar fuqarolarini kuzatishni o‘z inson huquqlari majburiyatlari doirasiga kirmaydigan “texnik operatsiya” sifatida talqin qilishda davom etdi. Hududdan tashqarilik masalasining hal qilinmasligi raqamli kuzatuvni tartibga solishdagi eng katta normativ bo‘shliqlardan biri bo‘lib qolmoqda.

To‘rtinchi cheklov esa xususiy kompaniyalar javobgarligini belgilash mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidir. Kompaniyalarni foydalanuvchilarining shaxsiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga majbur qiluvchi yuridik jihatdan majburiy xalqaro mexanizm yo‘q. Bu holat raqamli iqtisodiyotning asosiy aktyorlari bo‘lmish texnologiya gigantlariga nisbatan jilovlanmagan tarzda foydalanuvchilar ma’lumotlarini to‘plashda davom etishiga imkon bermoqda.

Rezolyutsiyalarning erishgan yutuqlari va yuzaga kelgan cheklovlarini tahlil qilish asosida raqamli muhitda shaxsiy huquq hamda erkinliklarni himoya qilish sohasidagi xalqaro huquqiy tartibning kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari haqida bir qancha xulosalar chiqarish mumkin. Bu yo‘nalishlar nafaqat xalqaro huquqning umumiy rivojlanishi, balki O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka singdirish jarayoni uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi yo‘nalish mavjud shartnomaviy bazani raqamli kontekstga moslashtirishdir. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi paktning 17-moddasini raqamli muhitga tatbiq etishda Inson huquqlari qo‘mitasining yangilangan Umumiy izohi muhim rol o‘ynashi kutilmoqda. 2018-yilda qo‘mita 16-sonli Umumiy izohni yangilash jarayonini boshladi va raqamli muhitdagi maxfiylik muammolarini qamrab oluvchi yangi izoh ishlab chiqilishi rejalashtirilgan. Bunday izoh paktning 17-moddasini raqamli kuzatuvga, metadata to‘plashga va shaxsiy ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlashga tatbiq etishning aniq standartlarini belgilashi mumkin. Shuningdek, Yevropa Inson huquqlari sudining *Big Brother Watch and Others v. the United Kingdom* (2021) ishidagi qarorlari kabi mintaqaviy sud amaliyoti ham muhim me’yoriy rivojlanishga hissa qo‘shmoqda.

Ikkinchi yo‘nalish raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish bo‘yicha maxsus xalqaro shartnoma qabul qilish zaruriyatidir. Bir qancha tadqiqotchilar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari shunday shartnomani ishlab chiqishni taklif qilgan. Bunday shartnoma raqamli kuzatuvning ta’rifi va chegaralari, davlatlarning hududdan tashqaridagi kuzatuv uchun javobgarligi, xususiy kompaniyalarning majburiyatlari, samarali individual va tizimli huquqiy vositalar hamda mustaqil xalqaro nazorat mexanizmi kabi muhim masalalarni hal qilishi lozim. Biroq bunday shartnomaning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi jiddiy siyosiy qiyinchiliklar bilan to‘qnash keladi, ya’ni yirik kuzatuv imkoniyatlariga ega davlatlar o‘z imkoniyatlarini cheklovchi shartnomani qabul qilishga moyil emas.

Uchinchi yo‘nalish sun’iy intellekt va algoritmik qaror qabul qilish tizimlariga oid xalqaro huquqiy standartlar ishlab chiqishdir. Sun’iy

intellekt tizimlaridan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va qarorlar qabul qilishda tobora koʻproq foydalanilmoqda. Ushbu tizimlar shaxsiy huquq va erkinliklarga, jumladan, kamsitilmaslik huquqiga, adolatli jarayonga boʻlgan huquqqa va inson qadr-qimmatiga jiddiy ta'sir koʻrsatishi mumkin. Bosh Assambleya 2021-yilda sun'iy intellektning inson huquqlari sohasidagi ta'siriga oid maxsus rezolyutsiya qabul qildi va Inson huquqlari kengashida ham ushbu mavzuga bagʻishlangan muhokamalar kuchayib bormoqda. Kelajakda sun'iy intellekt tizimlarining shaxsiy huquq va erkinliklarga ta'sirini tartibga soluvchi xalqaro majburiy normalar zarur boʻladi.

Toʻrtinchi yoʻnalish raqamli suverenitet (*digital sovereignty*) va ma'lumotlarni mahalliylashtirish (*data localization*) masalalarining xalqaro huquqiy tartibga olinishidir. Soʻnggi yillarda bir qancha davlatlar oʻz fuqarolari ma'lumotlari milliy hududda saqlanishi talabini belgilashga urinmoqda. Bu tendensiya bir tomondan shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish maqsadida asoslansa, boshqa tomondan internet parchalanishi va ma'lumotlar oqimiga cheklovlar qoʻyish xavfini keltirib chiqaradi. Xalqaro huquq bu oʻzaro ziddiyatli maqsadlar oʻrtasida muvozanat topishi zarur.

**Xulosa**

BMT Bosh Assambleyasining 68/167-sonli va 69/166-sonli rezolyutsiyalari, ular asosida tayyorlangan OHCHR hisoboti va 2015-yilda tashkil etilgan Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi boʻyicha maxsus ma'ruzachi instituti birgalikda raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish sohasidagi xalqaro huquqiy tartibning asosiy qurilmalarini tashkil etadi. Ushbu hujjatlar raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish masalasini xalqaro kun tartibiga kiritdi, mavjud xalqaro inson huquqlari normalarining raqamli muhitda ham kuchli ekanini tasdiqladi va muammoga oid normativ standartlarning muhim elementlarini belgiladi. Ular zarurlik, mutanosiblik, qonuniylik va shaffoflik tamoyillarini raqamli kuzatuvga tatbiq etishning birinchi universal asosini yaratdi.

Biroq tadqiqot tahlili shuni koʻrsatadiki, rezolyutsiyalar oʻz-oʻzicha raqamli muhitda shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilishning murakkab muammosini hal qila olmaydi. *Yumshoq huquq* tabiati, "oflayn-onlayn tengligi" metodologik tamoyilining cheklovlari, hududdan tashqarilik masalasining toʻliq hal qilinmasligi, xususiy kompaniyalar javobgarligining yetarli darajada belgilanmasligi va individual huquqiy vositalarning tizimli buzilishlarga moslanmasligi – bularning barchasi mavjud xalqaro huquqiy tartibning asosiy kamchiliklarini tashkil etadi. Bu kamchiliklar ushbu sohadagi xalqaro huquq hali shakllanish bosqichida ekanini va oldinda katta normativ ish yotishini koʻrsatib beradi.

Xalqaro huquq raqamli muhitdagi muammolarga javob berishda sekin harakat qilayotgani oʻz-oʻzicha yangi hodisa emas. Xalqaro huquq butun tarix davomida texnologik oʻzgarishlarga nisbatan reaktiv boʻlgan, ya'ni avval muammo yuzaga keladi, soʻng xalqaro hamjamiyat asta-sekin tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqadi. Biroq raqamli muhitning oʻzgarish tezligi an'anaviy xalqaro huquq jarayonlarining salohiyatini sinab koʻrmoqda. Rezolyutsiyalar bu borada dastlabki, ehtiyotkor, ammo muhim qadam boʻldi. Haqiqiy normativ yutuq esa majburiy xalqaro mexanizmlar yaratilganda, davlatlar siyosiy irodasini koʻrsatganida va xususiy kompaniyalar ham inson huquqlari boʻyicha javobgar subyektlarga aylanganda roʻy beradi.

Shaxsiy huquq va erkinliklarni raqamli muhitda himoya qilish faqat huquqiy texnik masala emas. Bu oxir-oqibat raqamli asrda inson qadr-qimmati va erkinligining ta'minlanishi haqidagi fundamental siyosiy hamda axloqiy muammodir. Xalqaro huquq bu muammoni hal qilishning asosiy vositalaridan biri boʻlib qolishi, ushbu sohada yanada qat'iy va majburiy xalqaro standartlar yaratilishi zamonaviy xalqaro huquqning eng dolzarb vazifasi boʻlib qolmoqda. Ushbu sohada kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar majburiy mexanizmlar yaratilishi uchun me'yoriy asoslarni ishlab chiqishga, hududdan tashqarilik masalasini hal etuvchi yangi talqinlarni taklif etishga va xususiy kompaniyalar javobgarligini xalqaro darajada belgilashning yangi modellarini oʻrganishga qaratilishi lozim.


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

## REFERENCES

*Big Brother Watch and Others v. the United Kingdom* [GC], Applications Nos. 58170/13, 62322/14, & 24960/15, Eur. Ct. H.R. (2021).

Chinkin, C. M. (1989). The challenge of soft law: Development and change in international law. *International and Comparative Law Quarterly, 38*(4), 850–866. https://doi.org/10.1093/iclqaj/38.4.850

Council of Europe. (1950). *Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms* (ETS No. 5).

European Parliament and Council of the European Union. (2016). Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data (General Data Protection Regulation). *Official Journal of the European Union, L 119,* 1–88.

Greenwald, G. (2014). *No place to hide: Edward Snowden, the NSA and the surveillance state.* Hamish Hamilton.

Human Rights Committee. (1988). *General Comment No. 16: Article 17 (The right to respect of privacy, family, home, and correspondence, and protection of honour and reputation) (UN Doc. HRI/GEN/1/Rev.9 (Vol. I)).* Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights.

Human Rights Committee. (2011). *General Comment No. 34: Article 19: Freedoms of opinion and expression (UN Doc. CCPR/C/GC/34).* Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights.

Human Rights Committee. (2015). *Concluding observations on the fourth periodic report of the United States of America (UN Doc. CCPR/C/USA/CO/4).* Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights.

Human Rights Council. (2014). *The promotion, protection and enjoyment of human rights on the Internet (Resolution 26/13, UN Doc. A/HRC/RES/26/13).* United Nations.

International Court of Justice. (1986). *Military and paramilitary activities in and against Nicaragua (Nicaragua v. United States of America), merits, judgment. ICJ Reports*.

Johns, F. (2013). The deluge. *London Review of International Law, 1*(1), 9–34. https://doi.org/10.1093/lril/lrt002

Joyce, D. (2015). Privacy in the digital era: Human rights online? *Melbourne Journal of International Law, 16*(1), 1–16.

*Klass and Others v. Germany,* Application No. 5029/71, Eur. Ct. H.R. (1978).

La Rue, F. (2013). *Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of the right to freedom of opinion and expression (UN Doc. A/HRC/23/40).* United Nations General Assembly.

MacAskill, E., & Dance, G. (2013, November 1). *NSA files: Decoded.* The Guardian. https://www.theguardian.com/world/interactive/2013/nov/01/snowden-nsa-files-surveillance-revelations-decoded

*Malone v. the United Kingdom,* Application No. 8691/79, Eur. Ct. H.R. (1984).

Milanovic, M. (2015). Human rights treaties and foreign surveillance: Privacy in the digital age. *Harvard International Law Journal, 56*(1), 81–146.

Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights. (2014). *The right to privacy in the digital age (UN Doc. A/HRC/27/37).* United Nations.

*Roman Zakharov v. Russia* [GC], Application No. 47143/06, Eur. Ct. H.R. (2015).

Ruggie, J. (2011). *Report of the Special Representative of the Secretary-General on the issue of human rights and transnational corporations and other business enterprises: Guiding principles on business and human rights—Implementing the United Nations "Protect, Respect and Remedy" Framework (UN Doc. A/HRC/17/31).* United Nations General Assembly.

Shelton, D. (2000). *Commitment and compliance: The role of non-binding norms in the international legal system.* Oxford University Press.

Solove, D. J. (2009). *Understanding privacy.* Harvard University Press.

Solove, D. J. (2013). Introduction: Privacy self-management and the consent dilemma. *Harvard Law Review, 126*(7), 1880–1903.

United Nations General Assembly. (1948). *Universal Declaration of Human Rights (Resolution 217A (III), UN Doc. A/810).* United Nations.

United Nations. (1966). *International Covenant on Civil and Political Rights. (1966, December 19). United Nations Treaty Series, 999, 171.* United Nations Treaty Collection.

United Nations General Assembly. (2014). *The right to privacy in the digital age (Resolution 68/167, UN Doc. A/RES/68/167).* United Nations.

United Nations General Assembly. (2015). *The right to privacy in the digital age (Resolution 69/166, UN Doc. A/RES/69/166).* United Nations.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2026-yil 2-son**

VOLUME 10 / ISSUE 2 / 2026

DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2.